

1920–1930-YILLARDA SAMARQAND VILOYATIDA AHOLI TARKIBI, SAVODXONLIK VA MIGRATSIYA JARAYONLARI TAHLILI (XOTIN-QIZLAR MISOLIDA)

Saodat Bozorboyevna ABDUJABBOROVA

tayanch doktorant

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O‘zbekiston

e-mail: sabdujabborova1@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1920–1930-yillarda Samarqand viloyatida aholi sonining o‘sishi, migratsiya jarayonlari, milliy tarkib, jinsiy nisbat hamda savodxonlik darajasi statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Ayniqsa, xotin-qizlarning savodxonlik darajasi erkaklarga nisbatan ancha past bo‘lganligi, bunga esa ijtimoiy-madaniy omillar, an’anaviy qarashlar va mavjud cheklovlar sabab bo‘lgani yoritilgan. Shuningdek, Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida amalga oshirilgan siyosiy va ijtimoiy islohotlarning ayollar hayotiga ta’siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyatining ko‘pmillatli tarkibi va demografik rivojlanishida ayollarning o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar: Samarqand viloyati, ayollar, demografiya, savodxonlik, migratsiya, milliy tarkib, Sovet davri, aholi o‘sishi.

АНАЛИЗ СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ, ГРАМОТНОСТИ И МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 1920–1930-Е ГОДЫ (НА ПРИМЕРЕ ЖЕНЩИН)

Саодат Бозорбоевна АБДУЖАББОРОВА

Базовый докторант

Самаркандский государственный университет

имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

Аннотация

В данной статье на основе статистических данных исследуются рост численности населения, миграционные процессы, национальный состав, половое соотношение и уровень грамотности в Самаркандской области в 1920–1930-е годы. Особое внимание уделено тому факту, что уровень грамотности среди женщин был значительно ниже, чем среди мужчин, что обуславливалось социально-культурными факторами, традиционными взглядами и существовавшими ограничениями. Также раскрывается влияние политических и социальных реформ, проведенных в первые годы советской власти, на жизнь женщин. Результаты исследования показывают, что роль женщин была значимой в формировании многонационального состава и демографическом развитии Самаркандской области.

Ключевые слова: Самаркандская область, женщины, демография, грамотность, миграция, национальный состав, советский период, рост населения.

1924-yilda O'zbekiston SSR aholisining umumiy soni 4 mln 258 ming kishini tashkil etgan bo'lib, Samarqand shahar aholisi 866 ming kishi, ya'ni 20,3 foizni, qishloq aholisi 3 mln 392 ming 79,7 foizni tashkil etgan [1; 40-b]. Respublikamiz aholisi sonining muttasil va ancha yuqori sur'atlar bilan oshib borishi natijasida SSSR aholisi tarkibida O'zbekistonning salmog'i ham ortib bordi.

Sovet davrida O'zbekistondagi demografik jarayonlar va aholining migratsiyasi o'sha davrda ko'plab o'ziga xos muammolarga ega edi. Bu jarayon uch bosqichda kechgan: 1. 1926–1928-yillar: ichki migratsiya davri va ko'chirish siyosatining huquqiy asoslarini shakllantirish davri; 2. 1928–1932-yillar: respublikalararo va respublika ichidagi ommaviy ko'chirishlar davri; 3. 1932–1941-yillar: ichki migratsiyaning keng tarqalgan bosqichi hisoblanadi. Sovet hukumati 1925-yildan boshlab, O'zbekistonda rejalashtirilgan ko'chirish siyosatini yo'lga qo'ydi. Uning asosiy maqsadlari quyidagilar edi: paxta mustaqilligini ta'minlash, yangi yerlarni o'zlashtirish, demografik muammolarni hal etish va iqtisodiy salohiyatni oshirish bo'lgan [2; 1–5].

XX asrning 20-yillari oxiriga kelib, O'zbekiston SSR shaharlari aholisi 1 mln 13 ming kishi, ya'ni 22 foizni tashkil etib, qishloq aholisi 3 mln 647 ming kishi, 78 foizdan iborat bo'lgan [1; 40]. Samarqand O'zbekiston SSRning poytaxti bo'lib turgan mahalda shahar aholisi ham o'sib borgan. Bu, asosan, Respublika qishloq va ovullaridan ko'chib kelgan aholi hisobidan va boshqa markaziy tumanlar aholisi hisobidan bo'lgan [3; 425]. Samarqand aholisi ko'p millatli bo'lib bordi. Samarqand shahri O'zbekiston xalqi va davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida 1925-yil fevralda O'zbekiston SSR tashkil topdi. Bu paytda Samarqand viloyati tarkibida 4 ta: Jizzax, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Samarqand uyezdlari bo'lgan. Viloyatning maydoni 25240 chaqirim va aholisi 580 ming 408 kishini tashkil etgan. Samarqand shahri esa 1925-yilning apreldan 1930-yilning sentabrigacha O'zbekiston SSRning rasmiy poytaxti vazifasini bajardi. O'sha davrda O'zbekiston siyosiy rahbariyati tomonidan Samarqand shahri bejizga poytaxt qilib tanlanmagan edi.

Buning asosiy sababi, shaharning geografik joylashuvi hamda azaldan muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz bo'lganligi edi. Shahar aholisining 26,4%ini o'zbeklar tashkil qilar edi, 25,5%ini ruslar, 20,3%ini tojiklar tashkil etgan. Bundan tashqari bu yerda mahalliy Buxoro yahudiylari, armanilar, turkmanlar ham mehnat qilar va ahil oila bo'lib yashashardi. Ularning jamoalari o'zlarini samarqandliklar deb atashar edi [4; 192].

Aholi ro'yxati ma'lumotlarining ko'rsatishicha, mahalliy bo'lmagan aholi, asosan, 1920-yillardan keyin ko'chib kelganlardan iborat bo'lgan. Migrantlar orasida 15-39 yosh guruhlari 62,9%, shu yerda tug'ilganlar esa 42,5% ga tog'ri keladi. Boshqa yurtlardan kelgan aholining qariyb yarmi ruslar edi. Fuqarolar urushi munosabati bilan demografik vaziyat jiddiy ravishda o'zgardi. Migratsiya jarayonlari kuchaydi, tub joyli bo'lmagan aholining o'lkadan ko'chib ketishi o'sdi. Biroq, baribir ko'chib kelgan aholi ma'lum foizni tashkil qilgan, uning eng ko'p qismini sharqiy slavyanlar tashkil qilar edi. Ularning soni jihatidan Samarqand viloyati birinchi edi. Sirdaryo viloyatida jami aholining 8,0% ruslar, 4,7% ukrainlar, 0,2% beloruslar, Farg'ona viloyatida 3,2% ruslar, 2,2% ukrainlar, Samarqand viloyatida 0,5% ruslar, 0,1% ukrainlar tashkil etgan [5; 168].

Samarqand viloyati aholisini millat, jins, yosh va savodxonlik jihatidan taqsimlanishi quyidagicha: Samarqand viloyati umumiy hisobda jami erkaklar 41759 nafar bo'lib, ulardan 12003 kishi (28,8%) savodxon, ayollar 40558 nafar bo'lib, 6347 kishi (15%) savodxon, jami aholi 82317 kishini tashkil etgan. Kattaqo'rg'on shahrida umumiy hisobda jami erkaklar 6757 nafar, 1023 kishi (15,1%) savodxon, ayollar 6107 nafar bo'lib, 438 kishi(7,2%) savodxon, jami aholi 12864 kishini tashkil etgan. Jizzax shahrida umumiy hisobda jami erkaklar 7083nafar, 875 kishi (12,3%) savodxon, ayollar 6850 ta bo'lib, 303 kishi (4%) savodxon, jami aholi 13933 kishini tashkil etgan. O'ratepada umumiy hisobda jami erkaklar 9721nafar, 1535 kishi (15,8%) savodxon, ayollar 9259 nafar bo'lib, 159 kishi (1,7%) savodxon, jami aholi 18980 kishini tashkil etgan. Xo'jand shahrida umumiy hisobda jami erkaklar 18957 nafar, 3392 kishi (17,5%) savodxon, ayollar

17336 nafar bo‘lib, 669 kishi (3%) savodxon, jami aholi 36293 kishini tashkil etgan [6; 12].

1926-yilda shahar aholisi 105106 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1930-yilga kelib aholi tug‘ilishining ko‘payishi natijasida va mamlakatning boshqa joylaridan ko‘chirib keluvchilar hisobiga 119358 kishiga ko‘paydi. Shu o‘rinda shahar aholisi har yili 1000 kishi hisobiga o‘rtacha 29 kishiga ko‘paydi [7; 316].

Samarqand shahri mahalliy aholisiga nisbatan demografiya darajasi

1-jadval

№	Millat	Erkaklar	Savodxon qismi	Ayollar	Savodxon qismi	Jami
1.	Ukrain	41759	12003–28,8%	40558	6347–15%	82317
2.	Belarus	6757	1023–15,1%	6107	438–7,2%	12864
3.	Polyak	7083	875–12,3%	6850	303–4,1%	13933
4.	Arman	1245	659–53%	1208	435–36%	2453
5.	Yevropalik yahudiylar	735	518–72%	753	451–59%	1488
6.	Tatarlar	320	213–66%	334	148–44%	654
7.	Yevropalik millat	984	776–78%	365	225–61%	1349
8.	O‘zbeklar	15907	1379–8%	14465	101–0,7%	30372
9.	Sart	45	9	15	-	60
10.	Tojiklar	48912	7584–15,5%	46018	1025–2,2%	94930
11.	Forslar	1492	241–16%	1360	43–3,2%	2852
12.	Eronliklar	1517	183–12,1%	1548	19–1,2%	3065
13.	Qirg‘izlar va qozoq-qirg‘izlar	73	28–38,4%	16	1–6,3%	89
14.	Turkmanlar	51	2–3,9%	53		104
15.	Mahalliy yahudiylar	3998	1004–25,1%	4022	83	9020
16.	Mahalliy millat vakillari (boshqalar)	265	63–25%	215	19	480
17.	Birorta millatga mansub bo‘lmaganlar	306	130–42,3%	150	28–18%	456

O‘zbekiston SSRda viloyatlar ichida ko‘pmillatli viloyat sifatida Samarqand viloyati ham kirgan. O‘zbeklar 30 mingdan ortiq bo‘lib, ayollar 45% dan ziyod bo‘lgan, qolganlarni erkaklar tashkil etgan. Lekin 15 mingdan ziyod erkaklarning

40% savodxon bo'lsa, ayollar 1%ni tashkil etgan. Yevropa millatiga mansub aholi 1000 kishiga yetmasa ham, ularning 61%i savodxon bo'lgan (2-jadval).

2-jadval

Samarqand aholisi millati, jinsi, yoshi va savodxonligi [8; 3–26-b]

	12–15 Yosh (erkak)1- jami/2- sav.lik	12–15 Yosh (ayol) 1- jami/2- sav.lik	16–19 Yosh (erkak) 1-jami/2- sav.lik	16–19 Yosh (ayol) 1-jami/2- sav.lik	20–29 Yosh (erkak) 1-jami/2- sav.lik	20–29 Yosh (ayol) 1-jami/2- sav.lik
Ukrain	707/ 678	656/620	425/415	629/565	845/804	1398
Belarus	13/12	112/110	68/68	86/76	127/118	169
Polyak	27/25	7/7	7/7	12/12	41/39	40
Arman	113/92	21/19	85/70	99/77	64/59	48
Yev. yahudiy	68/57	116/89	57/52	52/39	118/99	204
Tatar	16/11	85/68	12/11	18/16	112/103	158
Yevropa millat	24/23	11/7	11/11	21/21	42/37	42
O'zbek	204/38	17/15	106/28	106/3	155/217	65
Sart	1/1	87/5	1/-	1/-	244/48	244
Tojik	2455 /454	1648-58	1472/396	1573/95	10/1	1
Fors	157-42	118/10	81/23	120/5	188/51	223
Eron	156/38	129/3	100/29	100/2	159/33	249
Qozoq- qig'iz	9/2	1	5/4	-/-	6/5	3/-
Turkman	4/1	1	-/-	5/-	4/-	8/-
Mahalliy yahudiy	456/125	430	269/106	280/8	503/254	582/-
Boshqa mahalliy millatlar	20/4	16/1	16/8	22/5	37/19	32
Aniq millatga ega bo'lmagan lar	13/6	8/3	44/40	7/7	70/30	23
Jami	4560/ 1725	3463/ 1043	2767/ 1269	3158/ 955	5727/ 2676	7178

1926-yil Samarqand shahrida 12–15, 16–19, 20–29 yoshli ayollar va erkaklar soni va ularning savodxonligi o'rganilib, tahlil qilinganda shuni aniqlash mumkinki, erkaklar ayollarga nisbatan ko'p va savodxonlik darajasi 80% dan ziyod bo'lgan. Bunga sabab, XX asrning 20-yillari o'rtasida o'gil bolalar tug'ilishi qizlarga nisbatan ko'pligi edi. Shuningdek, ayollar, xotin-qizlarga ta'lim olishga va

ishlashga qo'yilgan cheklovlar ularning savodxon bo'lishga imkon bermagan (3, 4-jadvallar).

3-jadval

Samarqand shahar aholisining millati, jinsi, yosh chegarasi va savodxonligi [9; 35]

	30–39 Yosh (erkak) 1- jami/2- sav.lik	30–39 Yosh (ayol) 1-jami/2- sav.lik	40–49 Yosh (erkak) 1-jami/2- sav.lik	40–49 Yosh (ayol) 1-jami/2- sav.lik	50–59 Yosh (erkak) 1-jami/2- sav.lik	50–59 Yosh (ayol) 1-jami/2- sav.lik
Ukrain	11/11	13/5	11/10	5/2	8/8	1/-
Belarus	2/2	2/2				
Polyak	5/4	1/-	2/2	-/-	2/2	2/2
Arman	10/6	7/-	20/8	2/1	6/4	2/-
Yev. Yah.	10/10	7/7	2/2	2/1	1/1	1/-
Tatar	17/16	14/7	9/8	11/3	11/11	8/3
Yev millat	19/18	8/2	4/2	1/-	3/2	4/2
O'zbek	408/49	464/3	793/85	486/-	639/62	417/-
Sart	1/-	-/-	1	-	-	-
Tojik	11/1	4/-	10/2	5/-	7/-	4/-
Fors	1/-	1/-	-	-	1/1	-
Eron	-/-	-/-	-	-	-	-
Qoz-qir.	-/-	-/-	-	-	-	-
Turkman	1/-	-/-	-	-	-	-
Mah. Yah.	24/14	28/-	19/10	22/-	24/11	20/-
Mahalliy millatlar	4/4	1/-	4/-	-	1/-	
Aniq millatga ega emas.	1/-	-/-	-	2/1	1/-	1/-
Jami	573/177	636/64	931/177	583/27	724/115	487/17

4-jadval

O'zSSR da 1920–1940-yillarda demografik dinamika ko'rsatkichi [10;85]

Yil	Tug'ilish koeffisienti	O'lim koeffisienti	Tabiiy tug'ilish koeffisienti
1920	44,8	33,8	11,0
1926	41,5	22,6	18,9
1930	38,7	17,1	21,6
1935	36,6	15,8	20,8
1940	33,6	13,2	20,4

Bu yillarda aholi yoshiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, erkaklar 16–60 yoshgacha, ayollar 16–54 yoshgacha yashashgan. Tug'ilishning eng yuqori

ko'rsatkichi 45–47% ni tashkil etgan. O'rtacha yashash 32–33 yoshni tashkil etgan. 1923-yilgacha ro'y bergan fuqarolar urushi, aholi yosh darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. 1924–1939-yillarda O'zbekiston SSRda ro'y bergan o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, sog'liqni saqlash ishlari aholi o'sishida ijobiy ta'sir etgan. Aholi soni 1926–1939-yillarda 2,1% ga o'sdi. Qizlarni barvaqt majburan erga berish, ularga nisbatan tan jazosining qo'llanilishi, ayovsiz ekspluatatsiya qilish, og'ir turmush sharoitlari, zararli urf-odatlar va xurofotning keng tarqalganligi O'zbekiston ayollari o'rtasida o'limining yuqori bo'lishiga olib kelardi. Masalan, agar 9 yoshgacha bo'lgan 100 nafar og'il bolaga 101 qiz bola to'g'ri kelsa, 60 yoshgacha bo'lgan 100 erkak kishi hisobiga atigi 83 ayol kishi to'g'ri kelardi [11; 25].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1920–1930-yillarda Samarqand viloyatida kechgan demografik jarayonlar murakkab va ko'p omilli xarakterga ega bo'lgan. Aholi sonining o'sishi asosan tabiiy ko'payish va migratsiya jarayonlari hisobiga yuz bergan bo'lib, bu holat viloyatning milliy tarkibi va ijtimoiy tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, xotin-qizlarning demografik ko'rsatkichlari erkaklarga nisbatan ancha past bo'lib, bu savodxonlik darajasining pastligi, ijtimoiy cheklovlar va an'anaviy qarashlar bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida amalga oshirilgan islohotlar ayollar hayotida muayyan ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratgan bo'lsa-da, bu jarayonlar hali to'liq natija bermagan edi. Umuman olganda, ayollarning ijtimoiy-demografik holati hududning umumiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyatining ko'pmillatli demografik tuzilmasida ayollarning o'rni va rolini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асанов Г. Р. Ўзбекистон ССР аҳолиси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987.
2. Холмуминов Х. Э., Эмуминов О. З. Влияние Советской политики на миграционные процессы в Узбекистане. – Термез, 2020.

3. История Самарканда. I Том. С древнейших времен до великой октябрьской социалистической революции. – Ташкент, 1969.
4. Ботиров А. Самарқанд вилоятидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1925-1941йй). – Тошкент, 2020.
5. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – 168 б.
6. СамВДА. 1-жамғарма, 1-рўйхат, 54-иш, Б.12.
7. Ўзбекистон тарихи (Самарқанд тарихи) IX жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
8. СамВДА. 54-жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш. Б.3-26.
9. СамВДА. 54-жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш. Б.35.
10. Саидова З.А. Рождаемость в Узбекистане (1890-1990 гг). Демографическая устойчивость: Исторический опыт. Народнонаселение и экономика. – Москва: Экономика, 1967.
11. Мадраҳимова Р. М. Октябрь совет Ўзбекистони хотин-қизлари тақдирида. – Тошкент, 1987.